



## MUSIQA MADANIYATI DARSINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Alisher Amrilloyevich O'rino

Buxoro davlat universiteti Musiqa ijrochiligi va madaniyat kafedrasini o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Maqolada musiqa madaniyati darsini shakllantirishning pedagogik va psixologik xususiyatlari haqida fikrlar yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** izlanish, tuyg'u, metod, mакtab, ijod, tarbiya, ahamiyat tadqiqot.

**Аннотация:** В статье рассмотрены педагогические и психологические особенности формирования урока музыкальной культуры.

**Ключевые слова:** исследование, чувство, метод, школа, творчество, воспитание, важность исследования.

**Annotation:** The article discusses the pedagogical and psychological features of the formation of a musical culture lesson.

**Key words:** research, feeling, method, school, creativity, education, importance of research.

Hozirgi kunda musiqa o'qitish metodlari bordaniga kelib shakllangan fan emas, balki bunga qadar mazkur fanni shakllanishi ijodiy va murakkab taraqqiyot yo'lini bosib o'tgan. Respublikamizda musiqa o'qitish metodikasini shakllantirishda mahalliy olimlar, metodistlar, tajribali o'qituvchilarning qator izlanishlari, o'quv qo'llanmalarining ahamiyati katta bo'ladi. Baddiy pedagogikaning metodika sohasidagi so'nggi yutuqlari talabalarni pedagogika faoliyatiga tayyorlash, ularni metodik bilim va mahoratlar bilan qurollantirish, musiqa o'qitish metodikasini bu maqsadga erishish uchun amaliy mashg'ulotlar mobaynida uzoq ijtimoiy mehnat qilish talab etiladi. Ma'lumki, maktabda o'quvchilarning yosh fiziologik xususiyalarini, ko'nikma va malakalariga qarab, musiqa o'qitish metodikasi qo'llaniladi. Bu yerda ta'lim usuli, o'quv materiallarining (o'quv reja, dastur) ta'lim prinsiplari, o'quv-tarbiyaviy ishlarning umumiyligini maqsad va vazifalari muhim ahamiyatga egadir. Demak, musiqa o'qitish metodikasi, o'quvchilarning musiqa san'atiga o'rgatishning mazmuni, vazifalari va metodlarini o'rgatuvchi va o'quv jarayonlarini tashkil etuvchi shakl va yo'llarini tadbiq etuvchi fandir. "Metodika" so'zi grekcha so'z bo'lib, "tadqiqot yo'li", "bilish usuli" degan ma'noni anglatadi va ta'lim-tarbiyaning alohida qismlari bo'lib hisoblanadi, ularning yig'indisi musiqa o'quv metodlari deyiladi. Musiqaning o'qitish metodlari deganda, maktab o'quvchilarning bilim, mahorat va malakalarini egallahda, ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda va dunyoqarashini tarkib toptirishda o'qituvchilarning qo'llagan ish usullari tushuniladi.

Musiqa o'qitish usullari vazifalarini amalgalashda, musiqa o'qitishning qator metodlari bilan birgalikda, pedagogikaning amaliy yo'nalishini hususiy (optimal) metodlar egallab, musiqa darsida qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi. Musiqa o'qitish





metodikasi vazifalarini amalga oshirishda musiqa darsida o'qitishning (optimal) xususiy metodlaridan unumli foydalanishga bog'liq. Yetuk olimlarimizning tadqiqotlarida maktab o'qituvchisining shaxsiyati va unga bo'lgan professional talablar va o'quvchilar munosabatini, xususiy metodlardan foydalanish jarayonida hal qilish lozimligini ilmiy asosda ta'riflab berganlar. Xususiy metod-biror bir fanning amaliy va ijodiy ishlarini mazmunini va mavzusini keng yoritib berish va mustahkamlashda, o'qituvchi va o'quvchi faoliyatida o'zaro aloqadorligini va o'quvchilarni bilish jarayonida izlanishga undovchi metoddir.

Musiqa o'z tabiyatiga ko'ra, kishilar xayoti ularning o'z-o'zlariga, turli voqelikka bo'ladigan munosabatini va boshqa ichki kechinmalarini xilma-xil tovushlar buyoqlari orkali, badiiy obrazlar orqali tasvirlaydi. Musiqa inson hissiyotiga kuchli ta'sir eta olish xusussiyati bilan tarbiyalashning muxim vositasidir.

Umumiy ta'lif maktablarida, jumladan, boshlang'ich sinflarda musiqa kuyidagi vazifalarni amalga oshirishni maqsad qilib oladi:

1.O'quvchilarda musiqaga ixlos uyg'otish, ularning musiqaviy qobiliyati ritm tuyg'usini, musiqaviy o'quvini, diqqati, tasavvurini, xotirasini va badiiy didini o'stirish..

2.O'quvchilarning ma'naviy qiyofasini takomillashtirish, tovushlardagi, tabiyatdagi, kishilar muomalasidagi go'zallikni ko'ra olish, his etish va o'zlashtira olishga o'rgatish Ona -Vatanga muxabbat, fuqarolik ma'suliyatini his qilish, jamiyatga foya keltirishda ishtiyok, farzandlik, o'quvchilik va jamoatchilik oldidagi burchni anglash, dustlik va o'rtoqlik va baynalmilchilik tuyg'ularni his etish, hayotda faol urinda turish kabi oliy hislarni, axloqiy tushunchalarini singdirish.

3. O'quvchilarning badiiy ijodkorlar qobiliyatini o'stirish. Go'zallikni hayotga, o'qish, mexnat va xatti-xarakatlarga olib kirish. O'z-o'ziga atrofdagi barcha narsalarga go'zallikga kirita olish.

Boshlang'ich sinflarda maxsus oliy va o'rta musiqa ma'lumotli mutaxasislar bilan bir qatorda boshlang'ich sinf o'qituvchilari xam musiqa darslarini mutaxasislar olib borishligi kutarilgan bo'lsada, musiqa o'qituvchilari yetarli emasligi sababli buni amalga oshirish imkoniyati bo'lmayapti. Shuning uchun institutlarning boshlang'ich ta'lif metodikasi bo'limlarida musiqa ta'lmini jiddiy yulga qo'yish, musiqa mutaxasislari yetarli bulmagan maktablarning ishlayotgan boshlayotgan sinf o'qituvchilarini malaka oshirish kurslarida kayta tayyorlash zarur. Shuningdek musikadan maxsus bilimi bulmagan boshlang'ich sinf o'qituvchilari musika mutaxasislari bilan xamkorlikda bamaslahat ish olib borishlari maqsadga muvofikdir.

Ma'lumki musiqa darslari kuyidagi asosiy qismlarni o'z ichiga oladi.

1. Ashula va xor bo'lib ijro etish
2. Musiqa savodiga o'rgatish
3. Musiqa tinglash

Bu uchala qism o'zaro chambarchas bog'langan bo'lib, ularning mushtarakligi darsning tulaqonli sifatini belgilaydi. Darsning bu qismlarining har birini alohida





metodik taxlil kilinishi lozimligi uchun bu yerda ularga qisqacha, umumiy tarzda to'xtalamiz.

1.Ashula – xor ijrochiligi musiqa darsining asosi sifatida bevosita o'quvchilarning faol ishtiroki bilan amalga oshirish bilan xam o'ziga xosdir. Kuylash jarayoni murakkab psixologik-fiziologik xolatlarda kechadi. Bunda o'quvchilar oliy nerv faoliyati tezlashadi. Miyaning ostki ijobiy zavq-shavq markazlari ishga tushadi. Bolalarda yuksak bir badiiy ko'tarinkilik kayfiyati paydo buladi. Shuningdek, ovoz xosil kilish a'zolari: bugiz tovush psychalari, nafas, jag'lar va lablarning umumiy kuylash ko'nikmalarini mukammallashtirib boradi.

Qo'shiklardan tarbiyaviy foydalanish xar bir sinf o'quvchilarning yoshi va musiqaviy qobiliyati va ovoz imkoniyatini hisobga olgan holda mavzusi va tavsifi jixatidan turlicha bulgan asarlarni tanlash tavsiya klinadi. O'rganish uchun mo'ljallangan qo'shiklar repertuaridan Ona -vatanga, uning tabiat, jonivorlari, xalqimizning mehnati va hayoti bilan bog'langan turli bayramlar, fasl qo'shiklar xilma-xil janrlarga, axloq-odob mavzuiga keng o'rinn berilishi kerak.

Tanlangan qo'shiklar xilma-xil janrlarda bo'lib, lirk qo'shiqlar, xazil mutoyiba tarzidagi qo'shiqlar, bolalar xalk qo'shiqlari, bolalar o'yinlarini o'ynash uchun mos keladigan qo'shiklar, marshlar va valslardan iborat bo'lishi kerak.

Shuningdek, ashula-xor ijrochiligidagi qardosh jumxuriyatlar kompozitorlarining rus va chet el klassik kompozitorlarining asarlari, dunyo xalqlarning qo'shiklaridan namunalari xam o'rgatiladi. O'rgatiladigan qo'shiklarning g'oyaviy-ahloqiy va estetik mazmuni o'quvchilarga yaxshiroq singdirish uchun temaga xos kirish, etik suhbatlar, savol-javoblar, ifodali o'qish, rasmlar tahlil kilish, daftarga, temaga xos rasmlar chizib kelish, eski gazeta va jurnallardan rasmlar kesib yopishtirish kabi usullardan keng foydalanish tavsiya qilinadi.

Musiqa asarlari ijro davomida bepoyon vaqtning ma'lum bir bo'lagida yashaydi va shu vaqtning davomiyligi tufayli insonning ichki dunyosini, his tuyg'ularni va fikrlarini rivojlantirishda ifodalab beradi, inson hayajonli holatining eng nozik o'zgarishlarini izhor etadi.

Tom ma'nodagi sehrli musiqa tilni tushunmoq uchun uning vositalaridan, oddiy qoidalaridan savodxon bulishi kerak. Xo'sh, musiqaning ifoda vositalari nimalardan iborat, ovoz yordamida insonning butun ichki dunyosini ifodalay oladigan musiqa tili nima?

Musiqa asosiy ifoda vositalaridan biri – melodiyadir. Melodiya grekcha so'z bo'lib, qo'shiqni kuylash demakdir. Melodiya o'zbekcha maqom so'zimizga to'g'ri keladi va bundan keyin uni maqom deb yuritamiz. Maqomni shodlik va mangulikni ifoda etish imkoniyatlari benihoya katta. Ulug' rus kompozitori V.Raxmaninov, maqom musiqaning bosh asosi, maqomning o'zi musiqadir deb aytgan edi. Maqom ovozlar vositasida obrazli fikr yuritishdir..

XX asrning buyuk kompozitori D.Shostakovich musiqa tarbiyasining juda katta ahamiyati haqida gapirib, yigit va qizlarga murojaat qilib bunday degan edi: - "Buyuk





musiqa san'atini seving va o'rganig". Bu san'at sizga butun bir yuksak tuyg'ular, zavq-havaslar, g'oyalar olamini ochib beradi.U sizni ma'naviy jihatdan boyroq, sofroq va barkamolroq qiladi, musiqa tufayli siz o'zingizda yangi, ilgari sizga sezilmagan kuchlarni topasiz. Siz hayotni yangi rang va buyoqlarda ko'rasiz. Musiqa sizni jamiyatimizning muddaoasi bo'lgan eng barkamol inson idealiga yaqinlashtiradi. Boshlang'ich sinflarda musiqa ta'limining poydevori shakllanadi. Shuning uchun 1-sinfdan boshlab, o'quvchilarni musiqaga qiziqtirish, musiqiy taassurotlarini tarkib toptirish va zaruriy musiqiy ko'nikma va malakalarini hosil etish asosiy vazifa qilib qo'yildi. Musiqa madaniyati darslarida, bolalar o'zлari sevgan qo'shiqlar, musiqali o'yinlar va raqslar bilan yaqindan do'stlashadilar, chiroylar, yoqimli qo'shiq kuylashni o'rganadilar, musiqa tinglash madaniyati bilan tanishadilar. Musiqiy asarda nima ifoda etilishi va ular qanday tasvirlanishini bilib oladilar hamda milliy kuy-qo'shiqlarni o'rganib boradilar. Shuning uchun, birinchi sinfdan boshlab, bolalarni musiqaga qiziqtirish lozim.

Ayrim bolalarning ovozlari normal holatda bo'lsa-da, ular sozga tusholmaydilar. Bunga sabab, ularda musiqa eshitish a'zosi bilan tovush hosil qilish apparati o'rtasida baland-pastlikni sezish bo'yicha umumiy muvozanat hali shakllanmagan bo'ladi. Shu bois, bolalarning musiqiy o'quv qobiliyatları har xil bo'ladi. Shularni hisobga olgan holda, bolalarning musiqiy qobiliyatlarini sinchiklab o'rganib, ularni differensional guruhlarga bo'lib, joylariga o'tkazish lozim. Chunki har bir musiqa madaniyati darslarida o'quvchilarning qo'shiq o'rganish bilan birga, badiiy zavq olish, ijodiy fikrlash qobiliyatini, nutqi, musiqiy o'quvi rivojlanana boradi.

1.Darsni musiqaviy umumlashtiruvi metodi.

2.O'tilajak darslarga oldindan yugurib, bog'lanib o'tish va ilgari o'tilganlarga qaytish metodi.

3.Dars mazmunini emotsiyal dramaturgiysi metodi.

1)Darsning musiqaviy umumlashtirish metodi yetakchi metodlardan biri bo'lib, o'quvchilarni musiqa idroki, mantiqiy badiiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgandir:

a) O'qituvchi darsda hal qilinishi lozim bo'lgan konkret vazifalarni vujudga keltiradi;

b) O'qituvchi va o'quvchi birga hamkorlikda masalani yechadi.

v) O'quvchilar tomonidan yakuniy xulosalar chiqariladi.

2) Oldinga yugurib o'tish, ya'ni ilgari o'tilgan materialdan foydalanib, o'quvchilarni yangi material o'zlashtirishga tayyorligini sinab ko'rish va bunda oldin egallagan bilimlarga suyanish uchun foydalaniladi.

3) Emotsional dramaturgiya metodi bilan darsning mantiqiy yaxlitligiga erishiladi. Bunda chorak mavzusi asosida dars rejasi uchun asarlar tanlanadi. Tanlangan mavzular ham maqsadga muvofiq bo'lib, boshlanishi va yakunlanishiga bog'liqdir. O'qituvchi darsni ijrochilik mahorati, so'z ustaligi bilan qiziqarli qilib o'tishi kerak va o'quvchilarni darsga faol qiziqtirib, darsning emotsiyal dramaturniyasi, ya'ni avjiga erishishi lozim. Musiqa o'qituvchisi mакtabda musiqa darsidan tashqari





konsertlar, badiiy kechalar, uchrashuvlar o'tkazishni talab etadi. Har bir darsda o'quvchilarning musiqa haqidagi bilimlari boyib boradi. O'quvchilarning musiqiy taassurotlari va tajribalarining o'sishi, musiqani hayot bilan bog'lashda va musiqaning eng oddiy qonuniyatlari haqidagi bilim doiralarini kengaytirishda muhim ahamiyatga ega.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- 1.Кушаев.И.А, Ахтамов.И.И «Педагогические основы традиционной профессиональной музыки (на примере искусства дастана)» ACADEMY научно-методический журнал ноябр-2020 Ст.59-62.
- 2.Кушаев.И.А, Ахтамов.И.И «Проблемы индивидуальных музыкальных занятий в вузах Узбекистана» ACADEMY научно-методический журнал №3(66)2021
- 3.IA. Kushaev «Musical pedagogical fundamentals of doston art» ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal 2020/10/10. 1061-1067
- 4.IA Kushaev «Music pedagogical dollars of doston art» International Engineering Journal for Research & Development 2020/12/10
- 5.Ilhom Akhtamovich Kushaev «Bakhshi art schools and their performing features» Scientific reports of Bukhara State University 2020//3/3 Стр.295-299
- 6.Илном Ахтамович Qўшаев «Мусиқа маданияти дарсларида ҳалқ мусиқаси намуналаридан фойдаланишнинг ахамияти» Scientific progress 2021/1/5
- 7.ИФ Каюмов, М Жураева «Место музыки в воспитании духовно-нравственных качеств учащихся 5-7 классов общеобразовательных школ» Проблемы педагогики 2020.3(48) Стр.17-19
- 8.QI Fayzullaevich «Culture and art values and aesthetics in formation factors» Web of Scientist: International Scientific Research Journal 2021/2/25
- 9.IF Kayumov «Values and aesthetic factors in the formation of culture and art» International Engineering Journal For Research & Development 2020/12/1
10. ИИЎ Ахтамов «Мақом анъанавий касбий мусиқа намуналарини ўрганишда овоз хусусиятлари» Scientific progress 2021/1/5.
11. Ibragim Fayzullaevich Kayumov.Xalq qo'shiqlari asoaida boshlang'ich sinf o'quvchilarning nutqiy malakasini o'stirish usullari. Scientific progress 2021/03Б.635-640.
12. Ibragim Fayzullaevich Kayumov. Formation of composing art in uzbek music. Researchjet journal of Analysis and Inventions. Volume 2, issue 12, december-2021. 61-65.
- 13.Ибрагим Файзуллаевич Каюмов. Санъатнинг турлари ва уларнинг тарбиявий ахамияти. Science And Education Volime 3, Issue 1 January 2022.849-854.
14. Ислом Илхом ўг'ли Ахтамов. Мусиқа маданияти дарсларида ҳалқ мусиқасининг ўрни. Science and education.Б.431-436.





15. Ходжаев Р. Р., Каримов О. И. Подготовка будущих учителя музыки. Тренировка на скрипке для рефлексации мышц //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 2. – С. 1419-1423.
- 16.Каримов О. И. Значение специфических особенностей и воспитательных возможностей узбекских народных инструментов //Academy. – 2020. – №. 3 (54). – С. 78-80.
17. Каримов О. И. Профессиональные музыкальные взгляды будущего учителя музыки //Вестник науки и образования. – 2020. – №. 22-2 (100). – С. 17-20.
18. Karimov O. J. I. Tanbur sozining paydo bo 'lishi va milliy cholg 'u ijrochiligidagi o 'rni //Scientific progress. – 2021. – Т. 1. – №. 5. – С. 767-771.
19. Каримов О. И. Садриддин Айни-знаток и любител народной музыки //Вопросы науки и образования. – 2021. – №. 13 (138). – С. 21-24.
- 20.Норова Ш. У. РОЛ ВНЕШКОЛНОГО МУЗЫКАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В ФОРМИРОВАНИИ МУЗЫКАЛЬНОЙ КУЛТУРЫ МОЛОДЕЖИ //IJODKOR O'QITUVCHI. – 2022. – Т. 2. – №. 21. – С. 10-15.
21. Норова Ш. У. Рол народной музыки в духовно-нравственном образовании студентов //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 1. – С. 855-859.
22. Хасанов Х. Р., Яхяева Ш. Ш. МЕТОДИКА ОРГАНИЗАЦИИ «ГРУППОВОГО ПЕНИЯ» В ПРЕПОДАВАНИИ «МУЗЫКАЛЬНОЙ КУЛТУРЫ» В ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛАХ //Science and innovation. – 2022. – Т. 1. – №. B2. – С. 165-168.
23. Хасанов Х. Р. НЕОПРЕДЕЛЕННЫЕ ФОРМЫ В МУЗЫКЕ //Scientific progress. – 2021. – Т. 2. – №. 4. – С. 751-756.
24. Камолов Ш. Х., Бомуродов Ш. Ш. Педагогический характер студенческой молодежи и психологический подход //Academy. – 2021. – №. 3 (66). – С. 60-62.
25. Камолов Ш. Х. Приёмы и методы преподавания музыки в общеобразовательной школе //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 1. – С. 602-607.
- 26.Ибодов У. Р. Способы обучения музыкальной грамоте на уроках музыкальной культуры //Наука, техника и образование. – 2021. – №. 2-1 (77). – С. 65-68.
- 27.Ибодов У. Р. МУЗЫКАЛЬНЫЕ ФОРМЫ НА ОСНОВЕ ИНДИВИДУАЛЬНОЙ МОДЕЛИ КОМПОЗИЦИИ //Scientific progress. – 2021. – Т. 2. – №. 4. – С. 236-241.
- 28.Каримов О. И., Шарипова С. Ш. К. Место искусства музыки в формировании идеалной личности человека в дошкольном заведении //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 1. – С. 692-698.
29. Каримов О. И., Аҳмедова Ф. И. Q. Айтим (вокал) асарлари мисолида қўшиq ўргатиш имкониятлари //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 1. – С. 899-910.

